

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MAHALLA VA MAVZE NOMLARIDA INDIKATORLARNING QO'LLANISHI

Kaxarov Shuxratbek Tursunovich

Andijon davlat universiteti, o'qituvchi.

e-mail: shuhratz258la@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-8135-1619>

Annotatsiya.

Maqolada Toshkent shahri tarixiy mahalla va mavzelari nomlari tahlil qilingan. Ularda toponimik indikatorlarning qo'llanish xususiyatlari aniqlangan. Toponimik indikatorlar bevosita topoobyektning alohida jihatlarida haqida ma'lumot tashigani uchun ularni o'rganish ahamiyatli sanaladi. Maqolada Tabiiy va sun'iy obyekt, faol va nafaol, sof-xoronimik va funksional kabi turlari, tarixiy-etimologik qatlamlari, mahalla va mavzelar kesimida topoindikatorlarning qo'llanish xususiyatlari ajratildi.

Kalid so'zlar: mahalla, mavze, daha, indikator, toponim, xoronim, godonim, gidronim, oronim, ekklezionim, nekronim, oykonim.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИКАТОРОВ В НАЗВАНИЯХ МАХАЛЛЕЙ И МЕСТНОСТЕЙ

Кахаров Шухратбек Турсунович

Андижанский государственный университет, преподаватель.

Аннотация.

В статье анализируются названия исторических кварталов и районов города Ташкента. В них определены особенности использования топонимических показателей. Поскольку топонимические показатели непосредственно передают информацию о конкретных сторонах топографического объекта, их изучение считается важным. В статье выделены особенности использования топоиндикаторов в разрезе природного и искусственного объекта, активного и неактивного, чисто-оронимического и функционального, историко-этимологического слоев, окрестностей и регионов.

Ключевые слова: махалля, мавзе, даха, индикатор, топоним, ороним, годоним, гидроним, ороним, еkkлeзионим, некроним, ойконим.

THE USE OF INDICATORS IN THE NAMES OF MAHALLAS AND LOCALITIES

Kaxarov Shuxratbek Tursunovich

Andijan State University, Lecturer.

Abstract.

The article analyzes the names of historical neighborhoods and districts of Tashkent. The features of the use of toponymic indicators in them are identified. Since toponymic indicators directly carry information about individual aspects of the topographic object, their study is considered important. The article distinguishes such types as natural and artificial objects, active and inactive, purely horonymic and functional, historical and etymological layers, and the features of the use of topographic indicators in the context of neighborhoods and districts.

Keywords: neighborhood, district, daha, indicator, toponym, horonym, godonym, hydronym, oronym, ekklesionym, necronym, oikonym.

Kirish. Yurtimiz, mintaqamiz yuz yillar davomida ko'plab madaniyat o'choqlariga beshik bo'lgani tarixdan ma'lum. O'zbekiston toponimlarini o'rganish jarayonida qadimda yashagan ajdodlarimiz, turli xalqlar, qabila-elatlarning tili, urf-odatlar, dunyoni bilishi, nominativ tafakkuri kabi xususiyatlari mazkur obyektlar nomlarida lisoniy fakt sifatida o'z izlarini qoldirgan. Ushbu maqolada Toshkent shahridagi tarixiy mahalla va mavze nomlarida qo'llangan toponimik indikatorlarni tahlil qilishni maqsad qildik. Mavzuga doir toponimik material uchun S. Qorayevning "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" [4, B. 5-18] monografiyasidan foydalandik.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek tili izohli lug'atida "mavze" so'zi arabcha bo'lib, joy, o'rin, vaziyat, mavqe ma'nolariga ega ekani va o'zbek tili istilohida "shahar va shahar atrofidagi aholi yashaydigan joylarning kichik hududi" deb izoh berilgan [11, B. 517]. Ushbu lug'atda "mahalla" so'zi ham arabcha ekani, joy, o'rin, makon ma'nolarini ifodalashi, istilohda esa "shaharning ma'lum bir hududini o'z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o'zini o'zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-hududiy bo'lagi" deb izohlangan [11, B. 572]. Tarixan Toshkent shahri to'rt dahaga bo'lingan: Shayxontahur, Sebzor,

Ko'kcha, Beshog'och. Bu o'rinda qo'llangan toponimik termin "daha" so'zi qadimgi so'g'd tilidan o'zlashgan bo'lib, qishloq ma'nosini ifodalagan. Izohli lug'atda "qishloq joylarda bir necha qishloqdan, shahar joylarda bir necha mahalladan iborat bo'lgan ma'muriy-hududiy birlik" deb izohlangan [10, B. 581]. O'tgan asr boshlarida Toshkent shahri mahalla va mavzelarini o'rgangan N.G. Mallitskiy shaharda to'rt daha borligini aytadi. Shahar ichida mahallalar, shahar tashqarisida esa aholiga tegishli hududlar, ya'ni mavzelar borligini yozadi. Ular odatda dehqonchilik, bog'dorchilik ishlariga mo'ljallangan yerlar bo'lib, ularni aholi "bog'" deb aytishini ham keltirib o'tadi [6, S. 4].

Toshkent mintaqadagi eng qadimgi shaharlardan sanaladi. Uning nomi qadimgi so'g'd yozuvi yodgorliklarida [5, S. 78–79] qayd etilgan. Manbalarda qo'llangan Choch nomini izohlagan S. Qorayev so'g'dchada "tosh" ma'nosini ifodalagan, deydi [4, B. 6]. Vaholanki, B. Gharibning so'g'd tili lug'atini kuzatganimizda, "Choch" so'zining izohida "Toshkand" [2, P. 122] so'zi berilgani hamda "tosh" so'zi esa so'g'dcha tarjimada "sang" [2, P. 357] deb berilganiga guvoh bo'ldik. M. Koshg'ariy lug'atida esa Toshkent toponimi Tarkan shaklida qo'llanganini S. Mutallibov nashrida "Tarkan – Shoshning ismi. Uning asli Toshkand bo'lib, toshdan qurilgan shahar demakdir" [3, B. 414] tarzida berilgan. Turk olimi B. Atalay ham qo'lyozmadagi ushbu so'zni Tarkan deb o'qigan. Biroq A. Rustamov tomonidan tayyorlangan tarjima asosidagi ruscha nashrda Tashkan [7, S. 360], qozog'istonlik arabshunos olimi Z. Auezova nashrida ham Tashkan [8, S. 413], amerikalik arabshunos va turkshunos olim R. Dankoff nashrida ham Tashkan shaklida o'qilgan [1, P. 333]. Bizningcha, "toshdan qurilgan shahar" tarjimasi muvaffaqiyatli emas. Negaki, choch → shosh → tosh transformatsiyasi o'ziga xos kombinator va pozitsion o'zgarishlar natijasi sanaladi. Bizni shubhaga solgan holat so'g'dcha va turkcha bo'lgan choch va tosh leksemalarining ma'nodosh bo'lishidir. Keyingi tadqiqotlarda so'g'dcha substrat bo'lgan choch asosining ma'nosiga aniqlik kiritish kerak bo'ladi.

Tarixchi Muhammad Solihxo'janing "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida yozilishicha, XIX asrda Toshkent shahri to'rt dahaga bo'lingan. Daha so'zini mutaxassislar so'g'dcha "deha" (qishloq) so'zi bilan bog'laydilar. Toshkent dahalari shu yerda yashab o'tgan Qaffol Shoshiy, Shayx Zayniddin, Shayx Xovand Tahur va Zangiota kabi xalq nazdida mo'tabar bo'lgan kishilar nomlari bilan atalgan. Keyinchalik dahalar tartibi bilan Sebzor, Ko'kcha, Shayxontahur va Beshog'och deb yuritila boshlangan [9, B. 63].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Toshkent shahrining tarixiy mahalla va mavze nomlari lingvotoponimik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida S. Qorayevning "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" asarida keltirilgan Toshkentning tarixiy mahalla va mavzeleri nomlaridan foydalanildi. Toponimlar tarkibidagi indikator birliklar aniqlanib, ularning semantik, etimologik va funksional xususiyatlari tavsifiy hamda qiyosiy tahlil usullari asosida o'rganildi. Shuningdek, indikatorlarning mahalla va mavzelar kesimidagi qo'llanish chastotasini aniqlash maqsadida statistik tahlil usulidan foydalanildi. Tadqiqot davomida topoinikatorlar tabiiy va sun'iy obyektlarga mansubligi, toponomastik turlari hamda tarixiy-etimologik qatlamlari bo'yicha tasniflandi. Bu yondashuv Toshkent shahri xoronimlari tarkibidagi indikatorlarning nominativ va madaniy-lisoniy xususiyatlarini kompleks yoritishga imkon berdi.

Quyidagi maqolada tekshiruv obyekti bo'lgan toponimlar va ularga bog'liq bo'lgan indikator-aniqlagichlar o'rni bilan leksik-semantik tahlilga tortildi. Hamda umumiy nominativ lingvistik-toponimik manzarani hosil qilish uchun statistik tahlildan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Toshkent shahrining to'rt dahasida XX asr boshida jami 278 ta mahalla va 169 ta mavze bo'lgan. Jami 447 ta toponim.

Mazkur mahalla va mavzelar bo'yicha kuzatishlarimiz asosida jami 34 ta toponimik indikator aniqlandi. Shundan faqat 7 ta indikator tabiiy obyekt nomlari sanaladi: tepa, to'qay, dara, jar, kechik, soy, suv. Qolgan 27 tasi sun'iy obyektlar nomlaridir. Shundan 19 tasi bevosita o'rin-joyga ishora qiladi: bozor, mozor, ko'prik, bog', qo'riq, xona, qishloq, mahalla, guzar, masjid, ko'cha, pul kabilar. Yana 4 tasi sun'iy suv inshootiga ishora qiladi: ariq, quloq, to'g'on, tarnov. 3 tasi shaxsga ishora qiladi: bobo, ota, xalfa. Yana biri — obod indikator.

Ularning qo'llanish chastotasi, albatta, bir xil emas. Biz quyida ularni shartli ravishda faol qo'llangan toponimik indikatorlarni alohida jadvalda, faol qo'llanmagan toponimik indikatorlarni esa alohida jadvalda taqdim etishga qaror qildik.

1-jadval

Jumladan, **faol qo'llangan toponimik indikatorlar** quyidagilar:

№	TI	UM	Shayxontahur		Sebzor		Ko'kcha		Beshog'och		Umum	
			Mh	Mz	Mh	Mz	Mh	Mz	Mh	Mz	Mh	Mz
1	Bozor	40	1	0	15	1	6	0	17	0	39	1
2	Tepa	31	8	2	0	4	4	8	1	4	13	18
3	Ko'cha	28	11	0	8	1	4	1	3	0	26	2
4	Ariq	21	0	6	0	7	0	3	1	4	1	20
5	Ko'prik	14	0	0	1	4	0	4	3	2	4	10
6	Ota	14	1	0	1	3	0	2	5	2	7	7
7	Masjid	13	6	0	1	1	1	0	4	0	12	1

8	Xona	11	0	0	0	2	2	0	5	2	7	4
9	Qo'rg'on	10	2	1	0	5	1	0	0	1	3	7
10	Guzar	9	0	0	2	0	1	0	4	2	7	2
11	Mozor	8	1	1	1	2	0	1	1	1	3	5
12	Obod	7	0	2	0	3	0	2	0	0	0	7
13	Mahalla	6	1	0	0	0	0	0	5	0	6	0
Jami		212	31	12	29	33	19	21	49	18	128	84

Bunda: TI – toponimik indikator, UM – umumiy miqdor, Mh – mahalla, Mz – mavze.

Mazkur jadval asosida indikatorlarning hududlar, ya'ni dahalar, mahalla va mavzalar bo'yicha qo'llanish xususiyatlari namoyon bo'lib turibdi. Masalan, bozor indikatorli toponimlarning mavzelarda bo'lmasligi tabiiy hol. Bozorlar mahalla, ya'ni shahar ichida bo'lgan. Ariq indikatorli toponimlar esa asosan mavzelarda qo'llangan. Chunki mavzalar shahar aholisining bog' va ekinzorlari shu mavzelarda bo'lgan. E'tibor berilsa, ko'priq indikatorli toponimlar ariq indikatorli toponimlar bilan ayni hududda – mavzelarda jamlangan. Masjid indikatorli toponimlarni asosan mahalla hududida kuzatdik. Mavzelarda esa deyarli yo'q. Albatta, istisnolar e'tirof etiladi. Ko'cha indikatorli toponimlar ham albatta mahallalarda, shahar ichida jamlangan. Shuningdek, mahalla indikatorli nomlarning faqat mahalla ichida bo'lishi tabiiy hol. Bu kabi holatlar bizga indikatorlar semantikasining til tashuvchilar nazdida unutilmagan, balki faol bo'lganidan darak beradi.

2-jadval

Jumladan, nisbatan **faol bo'lmagan toponimik indikatorlar**:

№	TI	UM	Shayxontahur		Sebzor		Ko'kcha		Beshog'och		Umu	
			Mh	Mz	Mh	Mz	Mh	Mz	Mh	Mz	Mh	Mz
1	Quloq	4	0	0	0	0	0	4	0	0	0	4
2	Bog'	2	2	0	0	0	0	0	0	0	2	0
3	To'qay	2	0	1	0	0	0	0	0	1	0	2
4	Qo'riq	2	0	0	0	1	0	1	0	0	0	2
5	Pul	2	0	0	1	1	0	0	0	0	1	1
6	Xalfa	2	1	1	0	0	0	0	0	0	1	1
7	Saroy	2	0	0	1	1	0	0	0	0	1	1
8	Bobo	2	0	0	0	0	1	0	0	1	1	1
9	Qishloq	2	1	0	0	0	1	0	0	0	2	0
10	Tarnov	2	0	2	0	0	0	0	0	0	0	2
11	Ravot	2	0	0	0	0	0	1	0	1	0	2
12	Suv	2	0	0	0	0	0	2	0	0	0	2
13	Soy	1	0	0	0	0	0	0	0	1	0	1
14	Kent	1	0	0	0	1	0	0	0	0	0	1
15	Darvoza	1	0	0	0	0	0	0	1	0	1	0
16	Kechik	1	0	0	0	0	0	1	0	0	0	1
17	Jar	1	0	0	0	0	0	0	0	1	0	1
18	Tegirmon	1	1	0	0	0	0	0	0	0	1	0
19	Dara	1	0	0	0	1	0	0	0	0	0	1
20	To'g'on	1	0	0	0	1	0	0	0	0	0	1
21	Qopqa	1	0	0	1	0	0	0	0	0	1	0
Jami		35	5	4	3	6	3	9	1	5	11	24

Bunda: TI – toponimik indikator, UM – umumiy miqdor, Mh – mahalla, Mz – mavze.

Ushbu jadvaldagi indikatorlarning qo'llanishida ham hudud voqeligiga mos tushishi yaqqol ko'rinadi. Quloq

indikatori gidronimik termin sanaladi. Izoqli lug'atda "suvning anhor, kanal, o'qariq va sh.k.dan kichik suv yo'liga, ariqlarga tarmoqlanib o'tadigan joyi" [12, B. 373] tarzida izoh beriladi. Demak, bu tip indikatorli nomlarning mavzelarda bo'lishi to'g'ri. To'qay indikatorli toponimlarning ham faqat mavzelarda bo'lishi tabiiy.

Dahalar kesimida indikatorli va indikatorsiz toponimlarning qo'llanish chastotasini quyidagicha xulosalaymiz.

1. Shayxontahur, Sezbor, Ko'kcha dahalari mahalla nomlarida indikatorsiz shakllar ko'proq qo'llangan. Ularning nisbati indikatorli nomlarga qaraganda yuqori.

2. Beshog'och dahasi mahalla nomlarida esa, aksincha, indikatorli nomlar faol qo'llangan. Ularning nisbati indikatorsiz nomlarga qaraganda ancha yuqori.

3. Mavzelarga kelsak, Shayxontahur, Sezbor, Ko'kcha, Beshog'och — barcha dahalarda indikatorli nomlar dominantlik qiladi. Hatto Sezbor, Ko'kcha, Beshog'och dahalarida bularning nisbati ancha yuqori.

Hozirda biz tahlil qilayotgan mahalla va mavze nomlari toponimik jihatdan xoronimlar bo'lgani uchun ularning tarkibida qo'llangan indikatorlar xoronimik indikatorlar sanaladi. Ular ni tasniflaymiz:

1. Etimologik jihatdan sof xoronimik indikatorlar guruhiga bular orasidan mahalla, obod, rabot/ravot, kent, qo'riq indikatorlarini kiritamiz.

Qolganlarini esa biz funksional indikatorlarga kiritamiz. Ular odatda boshqa tur toponimlardan o'tgan tayyor birliklar sanaladi.

2. Godonimik indikatorlar guruhiga ko'cha indikator kiritiladi. Mazkur birlik eng faol qo'llangan indikatorlardan sanaladi.

3. Agoronimik indikatorlardan bozor indikator mazkur hududda eng ko'p qo'llangani bilan ajralib turadi. Biz guzar indikatorini ham shu guruhga kiritdik.

4. Gidronimik indikatorlar xilma-xilligi bilan ajralib turadi: ariq, quloq, tarnov, suv, soy, to'g'on kabi indikatorli nomlar aniqlandi.

5. Oronimik indikatorlar ham faol qo'llangan. Bunda tepa so'zi ko'p qo'llangan. Dara so'zini ham shu guruhga kiritish mumkin.

6. Gefironimik indikator bo'lgan ko'prik so'zi faol qo'llangan. Shuningdek, forsha pul so'zi ayni tur indikatoridan sanaladi.

7. Ekklezionimik indikator bo'lgan masjid so'zi faol qo'llangan.

8. Nekronimik indikator bo'lgan mozor so'zi faol qo'llangan. Shuningdek, ota, bobo indikatorlari ham nekronimlarga ishora qiladi.

9. Oykonimik indikatorlar ham xilma-xil shakllarda qo'llangan: qishloq, qo'rg'on, xona, obod, kent.

10. Drimonimik indikatorlar ham qo'llangan: bog', to'qay.

11. Pilonimik indikatorlardan darvoza va qopqa so'zlari qo'llangan.

Xullas, godonim, agoronim, gidronim, oronim, gefironim, ekklezionim, nekronim, oykonim, drimonim, pilonim kabi toponomastik turlar transonimizatsiya bilan boshqa tur, ya'ni mahalla va mavze nomlari — shahar xoronimlari turiga o'tadi.

Masalan, Balandmasjid, G'ishtmasjid mahalla nomlari dastlab ekklezionim, ya'ni masjid nomlari bo'lgan va ular faqat masjidlarning nominigina ko'rsatgan. Keyinchalik ekklezionim xoronimga, ya'ni mahalla nomini ifodalashga o'tgan. Bu holat metonimiya yo'li bilan nom ko'chishi ham deyiladi. Negaki, mahallaning shu nom bilan nomlanishiga aynan shu nomdagi masjidning mazkur mahallada joylashgani sabab bo'lgan. Labzakariq, Yangiariq gidronimlarining mavze nomiga o'tishida ham yuqoridagi holatga o'xshashlik bo'lgan. Bunda gidronimning, ya'ni ariq nomlarining xoronimga, ya'ni mavze nomiga ko'chishi kuzatilmoqda. Bu yerda transonimizatsiya hodisasi bor.

Toshkent shahri xoronimlari tarkibida qo'llangan indikator birliklarni tarixiy-etimologik qatlamlar bo'yicha tasnifi haqida gap ketganda, ularning aksariyati o'z qatlam leksemalari asosida shakllanganini ta'kidlash kerak.

Turkiy qatlam indikatorlari: tepa, ko'cha, ariq, ko'prik, ota, bobo, qo'rg'on, quloq, to'qay, qo'riq, saroy, qishloq, tarnov, suv, soy, kent, kechik, jar, tegirmon, dara, to'g'on, qopqa.

Arabcha qatlam indikatorlari: masjid, mozor, mahalla, xalfa, ravot/rabot.

Forscha qatlam indikatorlari: bozor, xona, guzar, obod, bog', pul, darvoza.

MUHOKAMA

Toshkent shahri mahalla va mavze nomlari tarkibida uchraydigan toponimik indikatorlar shahar hududining tarixiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot bosqichlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy birliklar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, indikatorlar nafaqat geografik obyektning turini belgilash vazifasini bajaradi, balki ma'lum davr aholisining xo'jalik faoliyati, diniy qarashlari, urbanistik tuzilishi hamda etnik-madaniy muhitiga oid qimmatli ma'lumotlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan qaralganda, mahalla va mavze nomlaridagi indikatorlar tarixiy xotiraning til orqali saqlanib qolgan elementlari sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar davomida eng faol qo'llangan indikatorlar qatoriga bozor, tepa, ko'cha, ariq, ko'prik, ota va masjid kabi birliklar kirishi aniqlandi. Ularning yuqori chastotada qo'llanishi Toshkent shahrining tarixan savdo-sotiq, hunarmandchilik va dehqonchilik markazi bo'lib kelganligi bilan izohlanadi. Xususan, bozor indikatorining ko'plab mahalla nomlari tarkibida uchrashi shaharning iqtisodiy hayotida bozorlarning markaziy o'rin tutganini ko'rsatadi. Ariq, quloq, to'g'on, tarnov kabi gidronimik indikatorlarning esa asosan mavze nomlarida uchrashi sug'orma dehqonchilik madaniyati va suv inshootlarining hudud hayotidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Mahalla va mavzelar kesimida indikatorlarning qo'llanishida muayyan qonuniyatlar kuzatiladi. Mahalla nomlarida ko'cha, masjid, bozor, guzar kabi urbanistik va ijtimoiy obyektlarni anglatuvchi indikatorlar faol bo'lsa, mavze nomlarida

ariq, tepa, to'qay, soy va boshqa tabiiy landshaft bilan bog'liq birliklar ustunlik qiladi. Bu holat nomlash jarayonida obyektning funksional xususiyatlari asosiy mezon bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, tarixiy nomlar tizimi tasodifiy emas, balki aholi tomonidan muayyan geografik va ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllantirilgan.

Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim jihat indikatorlarning transonimizatsiya jarayoni bilan bog'liqligidir. Dastlab boshqa turdagi toponimlar yoki obyekt nomlari sifatida mavjud bo'lgan birliklar keyinchalik mahalla va mavze nomlariga aylangan. Masalan, masjid, mozor, ariq yoki ko'prik kabi obyekt nomlari vaqt o'tishi bilan butun hududning nomiga ko'chgan. Bu jarayon metonimik nom ko'chirish asosida yuzaga kelgan bo'lib, toponimik tizimning dinamik rivojlanishini namoyon etadi. Shuningdek, bunday holatlar tarixiy obyektlarning mahalliy aholi ongida muhim orientir vazifasini bajaridan dalolat beradi.

Topoindikatorlarning etimologik tarkibi ham Toshkent hududining ko'p qatlamli tarixiy taraqqiyotini yoritishga xizmat qiladi. Turkiy qatlamga mansub indikatorlarning son jihatdan ustunligi mahalliy til unsurlarining yetakchi mavqega ega bo'lganini ko'rsatsa, arab va fors tillaridan o'zlashgan indikatorlar mintaqada yuz bergan uzoq muddatli madaniy hamda siyosiy aloqalarning natijasi sifatida baholanishi mumkin. Ayniqsa, masjid, mahalla, ravot kabi arabcha hamda bozor, guzar, obod kabi forscha indikatorlarning faol qo'llanishi Markaziy Osiyo shahar madaniyatining shakllanishida islomiy va forsiy madaniyat ta'siri sezilarli bo'lganini tasdiqlaydi.

Toshkent shahri mahalla va mavze nomlari tarkibidagi indikatorlar hududning tarixiy-geografik manzarasini tiklash, qadimiy urbanonimlar tizimini o'rganish hamda xalqning nominativ tafakkurini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ularni lingvistik, tarixiy va madaniy jihatdan kompleks tadqiq etish o'zbek toponimikasining nazariy masalalarini yanada chuqurroq anglashga, shuningdek, milliy madaniy merosni asrash va kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi.

XULOSALAR

Toshkent shahri dahalari mahalla va mavze nomlari tarkibida qo'llangan topoindikatorlarning tahlili natijasida tubandagi xususiyatlar aniqlandi: 1) ular tabiiy obyekt va sun'iy obyekt nomlarini ko'rsatadi, aniqlaydi; 2) ular quruqlik joy nomlariga va suv inshootlari nomlariga ishora qiladi; 3) ular faol toponimik indikatorlar va faol bo'lmagan toponimik indikatorlarga ajratildi; 4) toponimik indikatorlarning dahalar kesimida qo'llanish chastotasi aniqlandi; 5) toponimik indikatorlarning mahalla va mavzelar kesimida qo'llanish xususiyatlari aniqlandi; 6) mahalla va mavze indikatorlari etimologik jihatdan sof xoronimik va funksional indikatorlarga ajratildi; 7) funksional indikatorlar o'z navbatida 10 ta turga ajratildi; 8) topoindikatorlar tarixiy-etimologik jihatdan turkiy, arab va fors qatlamlarga ajratildi.

Xulosa shuki, Toshkent shahri mahallalarining tarixiy nomlari xalqimizning asrlar osha shakllangan urf-odatlar, hunarmandchiligi, geografik joylashuvi hamda etnik tarkibini o'zida aks ettiruvchi noyob ma'naviy va madaniy merosdir. Ular avlodlarni o'tmish bilan bog'lovchi tirik tarix hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-Kashgari M. Compendium of the Turkic Dialects. Ed. and trans. by Robert Dankoff. Part I. – Harvard: Harvard University Press, 1982. – 416 p.
2. Gharib B. Sogdian Dictionary (Sogdian–Persian–English). – Tehran: Farhang Publications, 1995. – 517 p.
3. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit-turk. Uch tomlik. 1-tom / tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. – Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi, 1960. – 500 b.
4. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 240 b.
5. Лившиц В. А. Юридические документы и письма. Согдийские документы с горы Муг. Вып. II. – Москва: Издательство восточной литературы, 1962. – 224 с.
6. Маллицкий Н. Г. Ташкентские махалля и мауза. – Ташкент, 1927. – 17 с.
7. Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов): в 3 т. Т. 1 / пер. с араб. А. Р. Рустамова. – Москва: Восточная литература, 2010. – 461 с.
8. Махмуд ал-Кашгари. Диван Лугат ат-Турк / перевод, предисловие и комментарии З.-А. М. Ауэзовой. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – 1288 с.
9. Sultonov O'. A. Muhammad Solihxo'ja va uning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 271 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 680 b.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 672 b.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 592 b.